

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ФАНЛАР АКАДЕМИЯСИ**

**ЎЗБЕКИСТОН ТАРИХИ
ДАВЛАТ МУЗЕЙИ**

**МУЗЕЙШУНОСЛИК XXI АСРДА:
ТАДҚИҚОТЛАР, АНЪАНАЛАР ВА
ИННОВАЦИЯЛАР**

**Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари
тўплами**

2-КИТОБ

ТОШКЕНТ – 2022

УЎК 069.01:001.895(082) «XXI»

Масъул мухаррирлар:

Жаннат ИСМАИЛОВА, тарих фанлари доктори, профессор

Алишер ИСМАИЛОВ, п.ф.б. фалсафа доктори (PhD), кат.и.х.

Лариса ЛЕВТЕЕВА, тарих фанлари номзоди, кат.и.х.

Жамловчи ва нашрга тайёрловчилар:

Дилафрўз КАРИМОВА, т.ф.б. фалсафа доктори (PhD), кат.и.х.

Тохир НОРҚОБИЛОВ, музей илмий ходим

Такризчилар:

Т.ф.д.Б.В.Хасанов, т.ф.н.Х.Файзиёв

Тўплам Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Ўзбекистон тарихи давлат музейи Илмий кенгашининг 2022 йил 4 апрелдаги мажлиси қарори асосида нашрга тавсия этилган.

Тўплам музейшунос, тарихшунослар, тадқиқотчилар ва кенг китобхонлар оммасига мўлжалланган.

© Ўз Р Ф А Ўзбекистон тарихи давлат музейи, 2022.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Веймарн Б. В., Черкасова Н. В. Искусство Советского Узбекистана, Л., «Искусство», 1960
2. Алимова Д. А. История Ташкента (с древнейших времен до наших дней). «Арт флекс», Т., 2007
3. Массон М., Пугаченкова Г.А. Шахрисабз при Темуре и Улугбеке / Труды САГУ. Археология Средней Азии. –Т.: САГУ. 1954.
4. Гражданкина Н.С. К истории строительной техники Узбекистана (технология производства облицовочной керамики и ее качественные показатели). Архитектурная керамика Узбекистана. – Т.: «Фан». 1968.
5. С.Булатов, А.Мухторов. Ганчкорлик санъати: Олий ўқув юртлари учун дарслик. Т.:Музыка, 2006.

Hamza QALANDAROV,

Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

Tel: (93)6874495; Email: qalandarov.hamza@bk.ru

(O'zbekiston)

YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA MUZEYSHUNOSLIK SOHASI RIVOJIGA DOIR ISLOHOTLAR VA ULARNING AHAMIYATI

Annотatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston mustaqillikka erishganidan boshlab muzeyshunoslik sohasi, ushbu soha rivoji xususida amalga oshirilgan islohotlar, qabul qilingan huquqiy- me'yoriy hujjatlar mazmun mohiyati xususida fikr yuritiladi. Shuningdek, so'nggi-yillarda mamlakat rahbari tomonidan ilgari surilayotgan strategik dasturlarda muzeyshunoslik va u bilan bog'liq sohalar borasidagi mulohazalar bayon qilinadi hamda soha samaradorligini oshirish xususida tavsiyalar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: muzey, muzeyshunoslik, turizm, O'zbekiston tarixi davlat muzeyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Harakatlar strategiyasi, Taraqqiyot strategiyasi.

Аннотация: В этой статье Узбекистан обсудит область музеологии, содержание орехованных правовых и положений о развитии этой области. В последние годы стратегические программы, ранее попросили страну в последние годы, будут описаны музеи и связанные с ними районы, а рекомендации по повышению эффективности отрасли.

Ключевые слова: музей, музеология, туризм, Государственный музей истории Узбекистана, Государственный музей истории Темуридов, Стратегия действий, Стратегия развития.

Annotation: In this article, Uzbekistan will discuss the field of museumology, the content of the cropped legal and regulations on the development of this field. In recent years, strategic programs previously asked the country in recent years will describe museums and related areas, and recommendations for increasing the efficiency of the industry are prompted.

Keywords: Museum, museology, tourism, State Museum of History of Uzbekistan, State Museum of History of the Temurids, Action Strategy, Development Strategy.

Mamlakatimiz mustaqillikni qo‘lga kiritib, taraqqiyot sari odimlar ekan, istiqlolimizning dastlabki davridanoq tarixga nazar tashlab, mavjud urf-odatlar, an‘analar hamda qadimiy yodgorliklarni o‘rganishga va saqlashga e‘tibor kuchaydi. Bu borada esa muzeylarning o‘rni va roli beqiyosdir. Zero muzeylar o‘tmishdan kelgan madaniyat, ma‘rifat, tabiat yodgorliklarining yaxlit tizimga solingan yig‘indisi bo‘lib, amaldagi tartiblarga muvofiq saqlanadi va namoyish qilinadi. Muzeylar milliy istiqlool mafkurasini xalqimiz qalbiga va onggiga singdirishda, milliy o‘zligimizni anglashda, ijtimoiy faollikni o‘rgatishda, komil insonni tarbiyalashda juda katta ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan tarixiy merosimizni o‘zida saqlovchi muassasa hisoblangan muzeylar rivojiga alohida e‘tibor qaratildi. Mazkur sohaning tashkiliy-huquqiy asoslari yaratildi. Davlatimizning boy tarixini, ko‘p asrlik merosini o‘zida mujassam etgan muzeylarni tashkil etish bo‘yicha bir qator ahamiyatli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 1994-yilda O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi tashkil etildi. Shuningdek, yurtimiz tarixida o‘chmas iz qoldirgan tarixiy shaxslarimiz nomini tiklash va ularning boy moddiy-madaniy merosni yosh avlodga yetkazib berish borasida ham samarali ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 1996-yil 18 oktabrda buyuk sohibqiron Amir Temur tavalludining 660-yilligi munosabati bilan yurtimizda yangi bir muzey - Temuriylar tarixi davlat muzeyi o‘z faoliyatini boshladi. Muzeyning ochilish marosimida ushbu muzeyga nisbatan: «Bu muzeyda bizning o‘tmishimiz ham, bugungi kunimiz va buyuk istiqbolimiz ham bamisoli ko‘zguda aks etgandek namoyon bo‘ladi» deb ta‘rif bergan edi Islom Karimov. [1]

1997-yilda badiiy ijod sohasida mutaxassis kadrlarni yetkazib beruvchi oliy ta‘lim muassasasi Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti tashkil etilib, Institut qoshida esa ilk bor muzeyshunos mutaxassis

kadrlarni tayyorlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan yo'nalish ochildi. Bu albatta, O'zbekiston tarixida muzeyshunoslikning fan sifatida rivojlanishi uchun qo'yilgan tamal toshi bo'ldi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Keyingi-yillarda ham bu ishlar tizimli davom ettirilib, 2001-yilda Termiz arxeologiya muzeyi, 2009-yilda Toshkentda aloqa tarixi muzeyi ish boshlagan bo'lsa, 2015-yilda esa mintaqadagi ilk bor Politexnika muzeyi ochildi.

So'nggi-yillarda ham soha faoliyatini yanada takomillashtirish, yangi muzeylar faoliyatini yo'lga qo'yish, muzeyshunos kadrlar tayyorlash tizimini samaradorligini oshirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi va qarori bilan O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ko'p-yillar davomida faoliyat olib borgan Toshkent shahridagi Oqsaroy qarorgohi muzeyga aylantirildi.[2] 2020-yilda esa Toshkent muzeyi faoliyati yo'lga qo'yildi. Shuningdek, jahon urushi qatnashchilari xotirasini abadiylashtirish maqsadida Shon-sharaf muzeyi ochildi.

Mamlakat rahbarining 2017-yildagi «O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi hamda «Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida» gi qarori ham muzeylar faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. [3]

Zamonaviy iqtisodiyotning yangi va istiqbolli bo'g'ini turizm hisoblanadi. So'nggi paytlarda mamlakatimizda turizmni rivojlantirish orqali yurtimiz iqtisodiyotini yuqori bosqichlarga ko'tarish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Muzeylar faoliyatini takomillashtirish ichki va tashqi turizmning rivojlanishiga olib keladi. Ayniqsa, buyuk o'tmishimiz, tariximizni namoyon etuvchi ochiq osmon ostidagi muzey shahar deb nom qozongan tarixiy shaharlarga sayohatlar uyushtirish ommaviy harakatga aylanmoqda. Bu borada «Ochiq osmon ostidagi muzey» deya e'tirof etilgan qadimiy shaharlarimiz Samarqand, Buxoro va Xivada ham qator ishlar amalga oshirilmoqda.

2017–2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning besh ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi, jumladan, «Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash-yili»

sayyohlar uchun qulay infratuzilma yaratish, hududlarning sayyohlik salohiyatini keng targ'ib qilish orqali ichki turizmni tizimli rivojlantirish;

xorijiy sayyohlarning tashrifi uchun keng sharoitlar yaratish, ularning sayohat dasturlarini mazmunan boyitish va ko'rsatiladigan xizmatlar turlarini kengaytirish hisobiga turizmni jadal rivojlantirish;

mamlakatimizdagi moddiy madaniy meros obyektlarida va ular atrofidagi obyektlarda tegishli infratuzilmani shakllantirish, amalga oshiriladigan diniy marosimlar uchun tegishli sharoitlarni yaratish orqali ziyorat turizmini sohaning istiqbolli yoʻnalishi sifatida rivojlantirish kabi asosiy vazifalar belgilab berilgan edi.[4]

Shuningdek, 2022 -2026-yillarga moʻljallangan Taraqqiyot strategiyasining V yoʻnalishi : Maʼnaviy taraqqiyotni taʼminlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish deb nomlanib, 75-76-maqсадlarda Madaniyat va sanʼat sohalarini yanada rivojlantirish, madaniyat muassasalari va obyektlarining moddiy-texnika bazasini yaxshilash, Oʻzbekiston tarixini oʻrganish va targʻib qilishni yanada rivojlantirish masalalarini amalga oshirish ilgari surilgan.[5]

Xulosa oʻrnida shuni aytishimiz mumkinki, muzeyshunoslikka qaratilgan eʼtibor natijasida muzeyshunoslik sohasini rivojlantirish, takomillashtirishga doir qator huquqiy normativ hujjatlari qabul qilindi hamda muzeylar faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari yaratildi. Shunindek, muzey ishini samarali yoʻlga qoʻyish hamda muzeylar faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida jamgʻarma tashkil etildi. Mustaqillik-yillarida Oʻzbekiston muzeylarida saqlanayotgan moddiy va madaniy merosimizni keng jahon ommasiga namoyish etish boʻyicha qator koʻrgazmalar jahon muzeylarida tashkil etildi. Muzeyshunos kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish boʻyicha bir qator amaliy ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda.

Yuqorida sanab oʻtilgan soha rivojidadagi muvafaqqiyatlar Oʻzbekistonda muzeyshunoslik sohasini taraqqiy etishiga mustahkam zamin yaratdi. Tashkil etilgan va etilayotgan koʻplab yangi muzeylar yosh avlodni tariximiz, moddiy va madaniy merosimizni naqadar chuqur ildizga egaligini singdirgan holda, ularni Vatanga muhabbat va sadoqat tuygʻulari bilan tarbiyalashga xizmat qiladi.

Shuningdek, erishilgan yutuqlar bilan birgalikda amalga oshirilishi lozim boʻlgan bir qator masalalar ham mavjud:

Jumladan, Oʻzbekiston Respublikasida turizm va muzeyshunoslik sohalarida taʼlim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish;

yangi muzeylarni tashkil etish bilan birga mavjudlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, zamonaviy asbob –uskunalar bilan jihozlash;

sayyohlar oqimini koʻpaytirish maqsadida telekanallarda, ommaviy axborot vositalarida mamlakatimiz turistik salohiyati, jumladan muzeylar targʻibotini kuchaytirish.

taʼlim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish orqali oʻquvchi, talaba-yoshlarning muzeylarga qiziqishini va tashrifini oshirish,

ekspozitsiyalarda namoyishga qo'yilgan eksponatlar to'g'risida QR kodlar orqali ma'lumotlarni olish tizimini takomilashtirish. Bu va bu kabi boshqa kabi choralar soha rivojiga, jumladan sayyohlar oqimi oshishiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Каримов И. Халқимиз бор экан, Амир Темур номи бархаётдир. Темурийлар тарихи давлат музейининг очилиш маросимида сўзланган нутқ, 1996 йил 18 октябрь.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 25.01.2017-yildagi PQ-2744-son «O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning хотirasini abadiylashtirish to'g'risida»
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 26.05.2020-yildagi PF-6000-son «Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish choratadbirlari to'g'risida»
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.02.2017-yildagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022-yildagi PF-60-son «2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»

Хушнудбек МАМАДАЛИЕВ,

Ўзбекистон тарихи давлат музейи, илмий ходим
(Ўзбекистон)

«ЯНГИ МАРҒИЛОН» ШАҲРИДА ИЛК МУЗЕЙ

Аннотация. Ушбу мақолада Россия империясининг Кўқон хонлигини босиб олгандан сўнг Фарғона водийси шаҳарлар бошқарув тизимидаги ўзгаришлар ва шаҳарларнинг «янги» қисмидаги ижтимоий ва маънавий қиёфаси ҳақида фикр юритилади. Жумладан «Янги Марғилон» шаҳрида ташкил этилган илк музей ҳақида маълумотлар берилган.

Калит сўзлар: уезд, «янги шаҳар», маъмурий марказ, халқ кутубхонаси, халқ музейи, тасаввуф илми, шахсий коллекция, экспозиция, верст.

Аннотация. В данной статье рассматриваются изменения в системе городского управления в Ферганской долине после завоевания Кокандского ханства Российской империей и социально-духовный облик «новой» части городов. В частности, была предоставлена информация о первом музее в Янги Маргилане.

Qalandarov H. Yangilanayotgan o'zbekistonda muzeyshunoslik sohasi rivojiga doir islohotlar va ularning ahamiyati	354
Мамадалиев X. «Янги марғилон» шаҳрида илк музей	358
Sa'dullayeva Z. Muzey ishida qonun hujjatlari ijrosi	364
Қаландарова Н. XX асрнинг биринчи яримида Ўзбекистон меъморий обидаларини таъмирлаш, тиклаш тарихидан (Бухоро шаҳри мисолида).....	369
Бабажанов Ш. Музей истории «тариката накшбандия» в Бухаре	377
Абдушукурова И. Музейнинг бугунги функцияси ва тарбиявий аҳамияти	387
Қодиров Д. Бухоро санъат музейидаги возеҳнинг «кони лаззат ва хони неъмат» рисоласи	393
Mirhakimova F. Namangan viloyatidagi uy va maktab muzeylari	399
Давлетмуратова Ш. XXI аср ёш авлодлари тарбиясида музейнинг ўрни	406
Shamsiddinov Sh. «Пахта ishi», «O'zbek ishi» – «Minglab taqdirlar ishi»	410
Султонова Н. Бухоро музейи либослар коллекциясининг тўпланиши	416
Насритдинова М. Суғдийларнинг шарқий туркистондаги фаолиятига доир	422
Хатамова Р. Ўзбекистонда XX асрда олий маълумотли ирригаторлар тайёрлашнинг зарурияти	431
Ўролова М. Ўзбекистон тарихи давлат музейи экспозициясида иккинчи жаҳон уруши материалларининг ақс этиши	439
Сафаев М. Марказий Осиё халқларининг этномаданий меросини тошкент музейи экспозициясида ақс эттирилиши	448
Atabekova S. Kalon masjidi ta'miriga oid arxiv hujjatlarining o'rganilishi va tadqiqotlar tavsifi	454
Nazarova D. Toshkent muzeylari tarixidan.....	461
Abdurasulov A. O'rta Osiyoning qadimiy e'tiqodlari	465
Эшматова Н. Музей экспонатларини ёритишда тошкент воҳаси урбанизация жараёнлари маълумотларидан фойдаланиш	473
Темиров А. Қашқадарё вилоятининг туризм салоҳияти: маданий мерос объектлари ва музейлари оммалаштириш муаммолари	478
Mullajonov E. O'zbekistonda muzey markentigini rivojlantirishda pablik rileyshnzning o'rni	483
Ўрмонов X., Нишонов А. Гулистон давлат университети тузилмасидаги катағон қурбонлари хотираси музейи хусусида	489
Ruzimurodov S. Uyg'ur yozuvining o'rta osiyo hududida qo'llanilishi davriy chegarasi masalasi ...	494